

## 2020-yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida Jizzax viloyatida jami 908,4 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 90,4 % ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 29,7 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,3 % ni tashkil etib oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 2,2 martaga oshdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 75,1 % i yoki 682,1 mlrd. soʻm toʻgʻri keldi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 87,7 % ni tashkil etdi. Norasmiy sektor hissasiga esa 21,6 % yoki 196,6 mlrd. soʻm toʻgʻri keldi, hamda oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 92,1 % ni tashkil etdi.

## 2020-yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari tarkibi


mlrd. so‘m



● Yirik qurilish tashkilotlari ● Kichik korxonalar va mikrofirmalar ● Norasmiy sektor

2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyatda jami 908,4 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 90,4 % ni tashkil etdi.

## 2020-yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari tarkibi (jamiga nisbatan % da)



● Yirik qurilish tashkilotlari ● Kichik korxonalar va mikrofirmalar ● Norasmiy sektor

2020-yil yanvar-aprel oylarida viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining qariyb 75,1 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga, 21,6 % i norasmiy sektor hissasiga va qolgan 3,3 % i esa yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to'g'ri keldi.


Viloyatda asosan qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining 75,1 % ini tashkil etdi yoki 682,1 mlrd. soʻmga toʻgʻri keldi va oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 87,7 % ni tashkil etdi. Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi qariyb 29,7 mlrd. soʻmga teng boʻldi va jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 3,3 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 196,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmning 21,6 % ga teng boʻldi. Shu bilan birga oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 92,1 % ni tashkil etdi.





## 2020-yilning yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan, % da)




Viloyatda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax shahrida (86,8 %), Sharof Rashidov tumanida (82,4 %) amalga oshirildi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich Paxtakor (77,3 %), Yangiobod (70,4 %) hamda Zarbdor (65,5 %) tumanlarida yuqori ulushni tashkil etadi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi Forish (42,5 %) va G'allaorol (45,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Ushbu tumanlar bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan bo'lib, mos ravishda ulushlari 57,5 % va 54,7 % ni tashkil etdi.

## 2020-yilning yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)



Qurilish ishlarining shahar va tumanlar kesimida eng yuqori o‘shish sur‘ati Zafarobod, va Forish tumanlarida kuzatildi.


“HUAXIN CEMENT JIZZAKX” qo‘shma korxonasi qurilishi bo‘yicha ishlar asosan Zafarobod tumanida jadal olib borilayotgani tufayli o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 martaga oshdi.

Forish tumanida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan qurilgan ijtimoiy soha obyektlari barpo etilayotganligi sababli o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shish sur‘ati 108,8 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda noturar binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmining 79,9 % ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 10,3 % punktga ko'paydi. Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi joriy davrda 11,4 % ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 5,5 % punktga kamaydi. Maxsus qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi esa 8,7 % ga to'g'ri keldi.



## 2020-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlari (mlrd. so‘m)




Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Jizzax shahrida 444,2 mlrd. so‘m qayd etildi. Bunga izoh sifatida shahar qiyofasini tubdan yangilash, sotish uchun qurilayotgan ko‘p qavatli uylar, muhandislik kommunikatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, ijtimoiy soha va ko‘ngil-ochar maskanlarini barpo etilayotganini ta’kidlash mumkin.

Shu bilan bir qatorda, yuqori sur‘atlarda bajarilayotgan qurilish ishlari hajmi Sharof Rashidov tumanida kuzatildi. Bu tumanda bajarilgan qurilish ishlari 139,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlarining asosiy qismini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uylar tashkil qilmoqda.


## 2020-yil yanvar-aprel oylarida qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi

2020-yil yanvar-aprel



● Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari  
● Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari  
● Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


2019-yil yanvar-aprel



● Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari  
● Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari  
● Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

## 2020-yil yanvar-aprel oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi

(mlrd. so'mda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan ishlaridan tashkil topdi.

Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 79,9 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,3 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 11,4 % ni tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5,5 % punktga kamaydi. Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari esa (ulushi 8,7 %) o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 4,8 % punktga kamaydi.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida mulkchilik shakllari  
bo'yicha qurilish ishlari tarkibi  
(jamiga nisbatan ulushi, % da)**



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 886,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 97,6 % ni, davlat tasarrufidagi qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi esa 2,4 % ni tashkil qildi.

## 2020-yil yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari (jamiga nisbatan ulushi, % da)



Arnasoy    Baxmal    G'allaorol    Sh.Rashidov    Do'stlik    Zomin    Zarbdor    Zafarobod  
 Mirzacho'l    Paxtakor    Forish    Yangiobod    Jizzax sh.

Jizzax viloyatida jami bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulushi Jizzax shahri hissasiga (48,9 %) to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sharof Rashidov (15,3 %), G'allaorol (5,7 %) va Zomin (5,4 %) tumanlari ham viloyatning qolgan tumanlariga nisbatan yuqori ulushga egaligini ko'rish mumkin.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

Aloqa telefoni: (72) 221-53-73